



BOLALAR TABASSUMI SAYYORAMIZNI YORITSIN

B. T. DAMINOV,
ToshPTI rektori,
Xalq deputatlari Toshkent
shahar kengashi deputati

Tabiat yaratib bergan oltin qoidalar borki, insoniyat ajdodlaridan avlodlariga tabiiy holda meros o'tib kelaveradi. Shulardan biri komil va sog'lom farzand – iz qoldirishdir. Farzand – har bir inson umrining mazmuni.

Ko'zimiz quvonchi, ertamiz egasi bo'lgan bolajonlarni asrab-avaylash, sog'lom, komil inson etib tarbiyalash har bir ota-ona va oilaning, jamiyat a'zosining burchi. Sog'lom avlod esa har qaysi davlat taraqqiyotini belgilovchi eng muhim omil sanaladi. Bolalar millatlar, insoniyat hayotining mohiyati. Jajji qalblar borligi uchun ham hayot rangin, yer shari aylanyapti.

Yosh toifasining bolalik bosqichi inson umrining maqsad va o'ziga ta'sir etishiga barchamiz hayotiy kuzatishlarimiz orqali guvoh bo'lib kelyapmiz. Soha mutaxassislarining fikricha, inson umri davomida o'zlashtirishi mumkin bo'lgan bilimlarning yetmish foizini uch yoshdan yetti yoshgacha bo'lgan davr oralig'ida egallab olar ekan. Demak, ota-ona, jamiyat, davlat bolalarning bu tashvishlardan yiroq, ezgulikka to'la lahzalarda qilayotgan orzulariga ular istayotgan ranglarni taqdim eta olishi kerak. Go'daklarning faqat yaxshiliklarga yo'g'rilgan bahor tongi misol

beg'ubor qalbi oltin davrining munosib bahosini olsin.

1-iyun – Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni eng quvonchli bayram sifatida butun dunyo bo'ylab keng nishonlanadi. Mamlakatimizda ham ushbu sana har yili o'ziga xos tarzda tantana qilindi. O'zbekiston – bolajon yurt, xalqimiz esa azaldan bolajon xalq.

Bayram tadbirlari doirasida Toshkent pediatriya tibbiyot instituti ham qator tadbirlarning tashabbuskori bo'ldi. Jumladan, Toshkent shahar Yunusobod tumanida joylashgan "Beg'ubor" MFYda istiqomat qiluvchi bolalarga "1-iyun – Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni" munosabati bilan bayramona tadbir uyushtirdi.

Toshkent shahridagi umumta'lim maktablarining 2–7-sinflari o'rtasida bolalar, o'smirlar va yoshlar salomatligini shakllantirish, saqlash va mustahkamlash maqsadida "Asfaliya" loyihasini amalga oshirdi. Mazkur loyiha doirasidagi ma'rifiy tadbirlar issiqlik buzilishining oldini olish va birinchi tibbiy yordam ko'rsatish, shuningdek, haddan tashqari jaziramada ehtiyot choralari ko'rishga bag'ishlandi.

1-iyun kuni Toshkent pediatriya tibbiyot instituti rahbariyati boshchiligidagi professor-o'qituvchilar va shifokorlar jamoasi institut klinikasida davolanayotgan jajji bemorlarni bayram bilan tabriklab, esdalik sovg'alar topshirdilar. Shuningdek, klinika bemorlariga maxsus bayramona dastur va yosh tomoshabinlar teatri tomonidan sahna ko'rinishlar namoyish etildi.

Yurtimizda olib borilayotgan islohotlar osmoni musaffo, tuni osuda, kuni farovon yurtda ulg'ayayotgan farzandlarimizning orzusiga qanot bag'ishlamoqda. Biroq, dunyo miqyosida bolalar himoyasi, ularning sog'ligi va ta'limi himoyasida hali ko'plab muammolar borligi ham achchiq haqiqat.

Dunyo bo'ylab bolalarning to'kis oila, psixologik va fiziologik jihatdan sog'lom voyaga yetishi va sifatli ta'lim olishiga kambag'allik, ochlik, turli iqtisodiy va siyosiy inqirozlar ta'sir o'tkazadi. To'yib ovqatlanmaydigan, sifatli ta'limdan bebahra, majburiy mehnatga jalb qilinayotgan millionlab bolalar bor. BMT tomonidan belgilangan 20-noyabr sanasi – Xalqaro bolalar kuni va 1-iyun – Xalqaro bolalarni himoya qilish kunlari ayrim davlatlarda bolalar kuni emas, bolalar haftaligi tarzida ham nishonlanadi. Maqsad esa irqi, dini, ijtimoiy kelib chiqishidan qat'iy nazar, alohida belgilangan ushbu sanalar orqali bolalarni himoya qilish, ularni sifatli tibbiy xizmat, ta'lim, yetarli oziq-ovqat bilan ta'minlashga xalqaro e'tiborni qaratish.

Shukurki, O'zbekistonimizda ulg'ayayotgan bolalarning har kuni bolalar kuni kuni kuni saodatli. Tilagimiz, bolalarning tabassumi butun sayyoramizni yoritib tursin. Dunyo mamlakatlaridagi har bir jajji aholining har kuni bolalar kuni kuni kuni quvonchga yo'g'rilsin!

Ushbu bayramda biz har bir bolaga mustahkam oila va beg'ubor bolalik uchun nimaiki zarur bo'lsa, shularning barchasini tilaymiz.

TIBBIYOTDAGI ISLOHOTLAR – INSON QADRI UCHUN



“Tibbiyotdagi islohotlar – inson qadri uchun” shiori ostida tibbiyot sohasida qator loyihalar, tadbirlar o‘tkazilmoqda. Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev 2022-yil 18-mart kuni sog‘liqni saqlash sohasi vakillari bilan ochiq muloqot o‘tkazgan edi. Mamlakatimiz tarixida ilk marotaba tashkil qilingan mazkur muloqotda sohani yanada rivojlantirish, tizimli muammolarni bartaraf etish chora-tadbirlari muhokama qilinib, tibbiyot xodimlarining takliflari tinglangandi. “Inson qadri uchun” shiori yurtimizda olib borilayotgan islohotlarning bosh mezoniga aylangani hech birimizga sir emas. Natijalarni, yutuqlarni jamiyatning faol azosi o‘laroq har bir fuqaro ko‘rib turibdi. Kichikroq doiradagi ko‘ngilochar tadbirlardan tortib, to jamiyatning ijtimoiy va siyosiy qatlamlarini yangi bosqichga olib chiqishni mo‘ljallayotgan katta loyihalargacha “Inson qadri uchun” g‘oyasi asosida hayotga tatbiq etilmoqda.

Prezidentimizning tibbiyot xodimlari bilan ochiq muloqotida belgilangan muhim vazifalar ijrosi bo‘yicha Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan hududlarda sog‘lomlashtirish aksiyalari o‘tkazildi va bu



xayrli ishlar davom etmoqda. Ana shunday tadbirlardan biri Toshkent viloyatida ham bo‘lib o‘tdi va unda Toshkent pediatriya tibbiyot instituti rektori, professor B.T.Daminov boshchiligidagi institut jamoasi ham faol ishtirok etdi va bu ishtirokdan maqsad etib joylardagi aholiga yuqori malakali tibbiy yordam ko‘rsatish, tibbiyot muassasalariga amaliy va uslubiy yordam ko‘rsatish faoliyatiga ko‘maklashish belgilangan.

Poytaxtalik shifokorlar, yetakchi olimlar va tibbiyot mutaxassislaridan iborat guruh Toshkent viloyatining Qibray, Yuqori Chirchiq, Bo‘stonliq tumanlarida sog‘liqni saqlash tizimini aholiga yanada yaqinlashtirish, ko‘rsati-



layotgan tibbiy xizmatlar sifati va qamrovini oshirish, yuqori texnologik tibbiy muolajalarni o‘tkazish borasida o‘z yechimini kutayotgan masalalar, muammo va kamchiliklarni bartaraf etishga ko‘maklashishdi.

Masalan, institutning terapevt, pediatr, xirurg, travmatolog, kardiolog, nevropatolog, nefrolog, urolog, endokrinolog, oftalmolog va boshqa mutaxassisliklar bo‘yicha yetakchi olimlari, professor-o‘qituvchilari hamda yuqori malakali shifokorlari, ayni paytda, ular mahalliy hamkasblari bilan birgalikda aholimizga yuqori malakali tibbiy xizmat ko‘rsatishga ko‘maklashish, viloyat aholisiga tibbiy xizmat ko‘rsatish sifati va samaradorligini oshirish maqsa-

da tibbiyot muassasalarining ish faoliyati bilan tanishib, bemorlarni davolash jarayonida bevosita qatnashib, joylarda yuqori texnologik operatsiyalar va tibbiy muolajalarni o‘tkazishda o‘zlarining qimmatli tavsiya va maslahatlarini berishdi.

Shuningdek, poytaxtdan kelgan mutaxassislar guruhlar kesimida viloyatning har bir shahar va tumaniga taqsimlanib, joylarda “xonadonbay” tamoyili asosida aholi salomatligi, ularni qiynayotgan tibbiyotga doir muammolarni o‘rgandi.

Bundan tashqari, tajribali mutaxassislar mahalliy shifokorlarga amaliy va uslubiy yordam sifatida o‘quv-seminarlar, trening va mahorat darslarini o‘tkazmoqdalar. Har kuni viloyatdagi hamkasblariga kasalliklarni tashxislash va davolash bo‘yicha o‘z maslahatlarini berib, amaliy jarayonda faol ishtirok etmoqdalar.

“Tibbiyotdagi islohotlar – inson qadri uchun” shiori ostida olib borilayotgan bu kabi ezgu ishlar ortida Yurtboshimiz boshchiligidagi farovon hayot, sog‘lom kelajak uchun amalga oshirilayotgan islohotlarning bir ko‘rinishidir. Bu kabi tadbir-loyihalar yurtimiz sog‘liqni saqlash tizimini yangi bosqichga olib chiqishiga xizmat qiladi.

Hasanxoja ABIDOV



YOSHLIK – KATTA IMKONIYAT, MARRALAR FASLI

Mamlakatimiz aholisining 30 foizini 14 dan 30 yoshgacha bo‘lgan yigit-qizlar tashkil etadi. Ularning ta‘lim olishi, kasb-hunar egallashi uchun keng sharoit yaratilgan. Shu bilan birga, yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazishni tashkil etish dolzarb masala hisoblanadi. Yoshlar qanchalik ma‘naviy barkamol bo‘lsa, turli yot illatlarga qarshi immuniteti ham shunchalik kuchli bo‘ladi.

Davlatimiz rahbari ijtimoiy, ma‘naviy-ma‘rifiy sohalaridagi ishlarni yangi tizim asosida yo‘lga qo‘yish bo‘yicha 5 ta muhim tashabbusni ilgari surgan edi. Ya‘ni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2019-yil 19-martda “Yoshlarga e‘tiborni kuchaytirish, ularni madaniyat, san‘at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ularda axborot texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish, yoshlar o‘rtasida kitobxonlikni targ‘ib qilish, xotin-qizlar bandligini oshirish” masalalariga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi.

Ikkinchi tashabbus – yoshlarni jismoniy chiniqtirish va sport sohasida o‘z qobiliyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratib berish masalalari ko‘zda tutulgan va ijrosi yuzasidan qator loyihalar amalga oshirildi, oshirilmogda. Shulardan biri “Talabalar bahori” festivali.

“Talabalar bahori-2022” festivali doirasida Toshkent pediatriya tibbiyot institutida ham joriy yilning 1-iyun sanasida fakultetlararo “Quvnoqlar va zukkolar” o‘yinining final bosqichi bo‘lib o‘tdi. Tanlovda institut iqtidorli talabalaridan iborat uchta: 1-Pediatriya va xalq tabobati fakultetining “Skalpel”; 2-Pediatriya va tibbiy-biologiya fakultetining “Milliy Art”; Tibbiy-pedagogika va davolash fakultetining “Vagus” jamoalari o‘z hazillari va aktyor-

lik mahoratlari orqali bellashdilar. Ushbu qiziqarli bellashuvda “Tibbiy pedagogika va davolash” fakulteti “Vagus” jamoasi mutloq g‘olib bo‘lib, rektor tomonidan qo‘yilgan uch million so‘m pul mukofoti va suv havzasiga bepul qatnash uchun yo‘llanmani qo‘lga kiritdi. Biz “Vagus” jamoasi a‘zosi Bexruz Hamidovni suhbatga chorladik. Undan faoliyati, qiziqishlari haqida o‘rtoqlashishni so‘radik.

– *Behruz, gul istagi gulzoriga olib boradi, deyishadi dono xalqimiz. Meditsina sohasi talabasi ning san‘atga oshuftaligini nima deb izohlagan bo‘lar edingiz?*

– Yoshligimdan san‘atga qiziqishin yuqori bo‘lgan. Ohunjon Madaliyev, Sherali Jo‘rayev ovozlariga taqlid qilib qo‘shiqlar aytardim. Maktabdan keying ta‘lim bosqichini Toshkentga kelib, san‘at va madaniyat yo‘nalishidagi kollejda davom ettirmoqchi bo‘lganman. Dadam ruxsat bermaganlar. Qarshidagi kasb-hunarga yo‘naltirilgan kollejda tahsil olish bilan bir qatorida, qo‘shimcha musiqa darslariga ham qatnar edim. Rubobda bir-ikki kuy o‘rgandim. Keyinchalik, harbiy xizmatga otlandim, rubob chalishlar ham qolib ketdi. Ammo, qayerda bo‘lmay, san‘at ko‘ksimning bir tomonini bezovta etib turgan. Televideniyega chiqishni, aktyor bo‘lishni orzu qilganman. Taqdir taqozosi bilan tibbiyot oliygohining talabasi bo‘ldim. Kelajakdagi faoliyatim haqida rejalarim ulkan. Kasbim bilan insonlarning tanasini, hobbiiy bilan ruhiyatini davolayman.

– *Hamma sohada ham muvaffaqiyatning kaliti tajriba hisoblanadi. Jamoangiz institut miqyosida birinchi o‘rinni egalladi. “Quvnoqlar va zukkolar”ga ilk qadamlaringiz haqida gapirib o‘tsangiz.*

– Yoshligimda oynayi jahon orqali talabalar o‘rtasida o‘tkaziladigan “Quvnoqlar va zukkolar” tanlovini miriqib tomosha qilardim.

Keyinchalik, maktabda, 9-sinf o‘quvchisi bo‘lgan paytimizda sinfdoshlarimiz bilan o‘z jamoamizni tuzganmiz. Harbiy xizmatda ham askarlardan tarkib tuzib, boshqa chast harbiy xizmatchilari bilan bellashganda birinchi o‘rinni olganmiz. Institutimizda birinchi marta katta doirada o‘z jamoam bilan qatnashdim. Xudo xohlasa, jamoamizni shakllantirdik, birinchi odimdayoq natijamiz quvonarli – yutdik. Bu katta sahnalarga chiqishga ilhom beradi.

– *“Vagus” jamoasining tarkibini tuzish jarayoni qanday bo‘ldi?*

– Boshida uch kishi edik: jamoamiz sardori, men va Azim ismli bola. Azimning vaqti to‘g‘ri kelmay, bizni tark etdi. Keyin o‘zimiz bilan birga yuradigan kursdoshlarimiz, tadbirlarda o‘zini ko‘rsatgan talabalar orasidan dunyoqarashi keng, hozirjavob bolalarni jamoaga tortdik. Kasting o‘tkazdik. Jamoamizning yangi a‘zolarini “sahnaga olib chiqish” oson bo‘lmadi. Sahna madaniyati, sahna nutqi degan san‘atning oltin qonuniyatlar bor. Qattiq ter to‘kdi va natija mehnatimizni oqladi.

– *Sahnaga olib chiqayotgan hazillaringizni qayerdan olasizlar? Ssenariyaringizni kimdir tahrirlab beradimi? Yumor ortiga qanday maqsadlar yashiringan bo‘ladi?*

– Aksar hazillarimizni institutimiz hayotidan olamiz. Ustozlarimiz dars jarayonidagi, o‘qituvchi va talabalarda kuzatiladigan kamchiliklarni olib chiqishimizni maslahat berishdi. Bachkana, hayosiz yumorlarni ishlatmaymiz. Ssenariylarimizni, albatta, ustozlarimizga tasdiqlatib olamiz. Ba‘zi epizodlarimizni sakkiz martalab qayta yozib borishimizga to‘g‘ri keldi. Ishlangan sari ssenariydagi g‘oyalimiz sayqallandi, originallashdi. Bu o‘zimizga ham sezildi.

Yumor ortiga qanday maqsadlar yashiringan bo‘ladi, degan

savolingizga kelsak, ijtimoiy hayotga faolroq kirib borar ekan-siz, ko'ngilni xira torttiradigan holatlarga, vaziyatlarga, insonlarga, xohlaymizmi, yo'qmi – duch kelamiz. Yuzing deysiz, ko'zing deysiz yoki boshqa sabablarga ko'ra sizni ranjitgan holatni o'sha joyda shartta bayon qilolmaysiz. Milliy mentalitetimiz bunga mone-lik qiladi. Bizning hazillarimiz, chiqishlarimiz o'zimiz vakili bo'lgan muhit, jamiyatdagi muammo, kamchiliklarga asoslanadi. E'tiborimiz qaratilgan nuqtadagi obyektga ko'zgu tutamiz. Biz olib chiqayotgan, ko'rsatayotgan "tomosha"lar farosati bor inson o'ziga kerakli xulosani chiqara oladigan darajada beozor, yengil ogohlantirishlar, turtkilar. Egasi aytilmagan kulgu ortidagi gapimiz bilan e'tirozlariga, dilozorliklarga sabab bo'layotgan muammoni yechim tomonga burolsak, ko'zlagan maqsadimizga erishgan bo'lamiz.

– **Sahnada hazillaringizning tagi zil bo'lgan holatlari ham bo'ldimi?**

– Bilasizmi, bir hazilimiz bor edi. Bir yigit menga "Aka, men bir saqich yaratdimda" deydi. Men qanaqa saqichligini so'rayman. U yigit "Bir mo'jizaviy saqich, uni chaynagan odamning ko'ziga mashhur-mashhur yulduzlar ko'rinadi", deydi. Men sinab ko'rishga tutinaman va saqichni chaynayman. "Haqiqattan, mana, ko'zimga Inna, Selena Gomis ko'rinayapti" deyman. Va shu payt tarix o'qituvchimizning ismlarini aytishim, ya'ni "Muyassar Karimova ham o'tiribdilar-ku" deyishim va musiqa yangrashi kerak edi. Qaradim, u ustozimiz yo'qlar. Jurilarning yonida Muborak Ahmedova o'tirgan ekanlar, shu ustozimizning ismlarini aytib yubordim. Davrada rosa kulgu, qiyqiriq bo'ldi. Ustoz Muborak Ahmedova ham miriqib kuldilar. Oradan ikki soatlar o'tib ustoz "Men qaysi talabani xafa qilganman?" deb xafa bo'lib kelib qoldilar. "Hazilni ko'tara olishingizni bilganimiz uchun Sizning ismingizni aytdik, ming bor uzr" deb, ko'ngillaridagi xafachilikni arang yozdik. Juda noqulay vaziyatda qolgandik.

– **Yoshlik – katta marralar, imkoniyatlar fasli. Bugun yana nimalar bilan bandsiz?**

– "Quvnoqlar va zukkolar" ko'rik tanlovidan boshqa, "Talabalar bahori" festivalining sport, ilm-ma'rifat yo'nalishida ham Tibbiy-pedagogika va davolash fakulteti talabalari faol ishtirok etdi. Xususan, sportning voleybol turidan ham jamoamiz 3-o'rinni egalladi. Kursdoshlarim sportni yaxshi ko'radigan, ilmni qadrlaydigan talabalar. "Quvnoqlar va zukkolar"ning respublika bosqichida qatnashishga so'rovnoma yuborganmiz. Bir-birimizdan motivatsiya olib, yangi marralar sari odimlayapmiz. Ayni kunlarda esa imtihon topshiryapmiz.

Yoshlar kelajak bunyodkorlari. Yo'l boshida, katta marralar da'vosi bilan turgan bo'lgusi millat qahramonlarining o'qish va ishlariga muvaffaqiyatlar yor bo'lsi! Behruz va tengdoshlarining hayot imtihonlaridan ham doin a'lo o'tishini tilab qolamiz.

Nargiza ODINAYEVA
suhbatlashdi



TOSHKENT PEDIATRIYA
TIBBIYOT INSTITUTI MEHNAT
JAMOASI NASHRI
ОРГАН ТРУДОВОГО
КОЛЛЕКТИВА ТАШКЕНТСКОГО
ПЕДИАТРИЧЕСКОГО
МЕДИЦИНСКОГО ИНСТИТУТА

Tahrir kengashi:

D.A. Asadov, A.V. Alimov,
X.F. Haydarov, M. Ahmedova,
K.N. Haitov, S.S. Gulyamov,
D.T. Ashurova, A. Rahmatullayev,
S. Nurxodjayev A. Valiyev,
A. Nosirov,

Nashr uchun mas'ul:
Sh. Abduhoshimova

Bosh muharrir:

B.T. DAMINOV
Tahrir hay'ati:
(ishchi guruh)
E.O. Tursunov, K.Sh. Turdiyeva
(Bosh muharrir o'rinbosari),
A.M. Mannonov,
D.A. Ahmedova, H. Rasulov
S.A. Begmonov, H. Abidov,
Z. Karimova, A. Xudayberdiyev

Gazeta Toshkent shahar matbuot va
axborot boshqarmasida 29.12.2006-yil
02-0010-son bilan ro'yxatga olingan.

Manzil: 700140, Toshkent-140,
Bog'ishamol ko'chasi, 223

"XALQ NASHRIYOTI" XKda chop etildi.
Manzil: Toshkent sh. Qorasaray ko'chasi, 316 uy.
Tel.: (71) 242-0510; (95) 170-04-02; (99) 040-04-02.
buyurtma adadi 110 nusxa, qog'oz bichimi A3.

Gazeta institut hisobidan nashr etiladi
va bepul tarqatiladi.